

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO'LIMI
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



2024-6/4

**Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arebayevich, d.b.n., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*

*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashevna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultanovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/4 (115), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2024 y. – 498 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

МУНДАРИЖА
FILOLOGIYA FANLARI

| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Abdullayeva G. Bolalar she'riyatida lirik qahramon ifodasi | 7 |
| Abdullayeva G.N. Vafo va xiyonat ziddiyati | 9 |
| Abdullayeva P.U. Ellipsis va substitutsiya hodisalari | 12 |
| Abdurahmonova H.Yu., Nishonov P.P. XIX asrda fransuz adabiyoti: qishloq turmush tarzi manzaralari va adabiy tendensiyalar | 15 |
| Abdurakhmonova A. Clarity counts: avoiding ambiguity through proper punctuation | 17 |
| Abdusagatova F. Radio eshittirishdagi yangi yo'nalishlar - davr talabi | 20 |
| Absmadova M.I. O'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik terminlarning qiyosiy tahlili | 23 |
| Ahmadaliyeva S.M., Shavkatova N.Z. Pragmatonimlarda stilistik vositalarning qo'llanilishi | 25 |
| Ahmadjonov M.A. O'zbekiston bosma nashrlari va blogosferasida bank-moliya mavzusining talqini: xususiyatlari, ziddiyatlari va tendensiyalar | 28 |
| Ahmadzade O. Functional styles of the Azerbaijani literary language of the XIX and early XX centuries in the researches of academician Tofiq Hajiyev | 31 |
| Akhmedova S.H., Bafoyeva D.D. Linguistic and cultural characteristics of english and uzbek proverbs | 34 |
| Alimova K.M. Postmodernizm davri kampus romanlari poetikasi | 36 |
| Allaberganova R., Maxmudov R. Qadimgi turkiy qavmlardagi ayrim shaxs nomlarining antropotsentrik tadqiqi | 40 |
| Allayev Z.M. Development of oneirosphere in traditional China | 43 |
| Aliyeva Z.A. Ornitonim komponentli frazeologik birliklarda portrativ ma'nolarining kognitiv xususiyatlari | 46 |
| Alqarov N.A. Investigating Utopian and Dystopian Motifs within Germanic and Romantic Literary Traditions | 48 |
| Amonov H.H., Raximova G. Pahlavon Mahmud she'riyatida ilm-ma'rifat afzalliklari va nodonlikning illatlari talqini | 52 |
| Amonova Z.Q., To'rayeva M.T. Alisher Navoiy lirkasida ma'shuqa uzvlarining badiiy talqinlari | 55 |
| Amonov U.S., Saparova Sh.R. Sadriddin Ayniy bolalar adabiyotining asoschisi | 59 |
| Anvarova S.M. Translating names of uzbek national clothes into english language | 62 |
| Atadjanova S.A. "Zubdatu-t-tavorix" asari she'riy shakllaridagi ma'naviy san'atlar | 64 |
| Ataniyazova D. Sh. Pragmatical characteristics of english and uzbek proverbs with food components | 67 |
| Ataxanova V.R. «Kitobi dadam qo'rqt» va Xorazm dostonlarining motivlar tizimi bo'yicha tahlili | 70 |
| Avezova A.M. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonlari qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida | 72 |
| Axmadaliyeva S.M. Onomastik ko'lam va unda pragmatonimlarning o'rni | 75 |
| Axtamova B.A. S.Ayniying "Doxunda" asarida nutqiy muloqotning sotsiopragmatik xususiyatlari | 78 |
| Azamatova G.S. Category of number in german language | 81 |
| Babajanova L.J. Bilingyal tezaurus yaratishda muammo va qiyinchiliklar. O'zbek va ingliz tillardagi fe'llarning valentlik munosabati masalalari | 84 |
| Babayeva P.T. Lexical-semantic features of onomastic units and points of development in fiction | 87 |
| Bakhronova B. The ways of improving note-taking skills in sequential translation | 89 |
| Baxranova D.U., Qarshiyeva L.Z. Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarda polisimiyaning hosil bo'lishi | 92 |
| Baymuratova X.A. "Firdavs ul-iqbol" asarida qo'llangan ayrim kosmonimlar xususida | 96 |
| Berdibekova H.M. O'zbek tilidagi falsafiy terminlarni ta`limiy korpusda teglash masalasi | 99 |
| Boboxonova S.X. Nemis va o'zbek tillarida hozirgi -kelasi zamонни o'rgatishning metodikasi | 102 |
| Botirbayeva Z., Bahodirova F. Giperbola (mubolag'a san'ati)ning reklamadagi o'rni | 104 |
| Burxanova M.M. Hid konseptining verballahushi | 108 |
| Choriyev U. Jadid ma'rifatparvarlari yaratgan darsliklarning ilmiy ahamiyati | 110 |
| Davlatnazarov D.R. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining versiyalaridagi antroponimlarning farqlanishi | 113 |
| Djalilova D.Z. "Javzo" romanida malikalar obrazi tahlili | 116 |
| Do'smatov S. Hamadoniy va Haririy maqomalarining o'ziga xosliklari | 118 |
| Egamnazarova D.Sh. Analyzing syntactic deviations through patterns, purposes, and perceptions | 121 |
| Ergashev D. Translation of terms as key units of a special text | 123 |

| | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ergasheva X. Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning leksik-semantik xususiyatlari | 126 |
| Eshqobilova O. Ingliz va o'zbek tili so'z birikmalari tuzilishining konseptual-kognitiv tasviri va matn shakllantirish imkoniyatlari | 128 |
| Fayzullayeva R. Ilk yozma manbalardagi vatan talqinining Sirojiddin Sayyid ijodiga ta'siri | 131 |
| Gafurova S.U. "Tavorixi guzida – Nusratnoma" asarida qo'llangan etnonimlar | 134 |
| Ganiyeva Sh., Dadajonova M. Topishmoqlarda narsa-predmet nomlarining yashirin ifodasi va uni o'qitish masalalari | 137 |
| Hakimjonova R. Tushbitiklarda arxetip obrazlar | 140 |
| Ibragimova I.A. Olamning individual lisoniy manzarasi tushunchasi | 144 |
| Ibragimova I.A. Til va tafakkurning birlashtiruvchilik xususiyati | 146 |
| Israil M. Qayta qurish davridagi o'zbek gazeta matnlarining lisoniy-uslubiy jihatlari: sotsiolingvistik yondashuv | 149 |
| Jabborova Z.M. Jahon va o'zbek tilshunosligida publisistik uslub va uning turlari | 153 |
| Jalilova M.Z. To'y-marosim nomlarini bildiruvchi ayrim etnografizmlar xususida | 156 |
| Jo'rayeva N.Sh. Evfemizm, yohud yumshoq muomala fransuz ayollarini talqinida | 159 |
| Jumanazarova N. Xiva topominining kelib chiqishi | 161 |
| Husanova D. Points of intersection and differences in the fields of lexical synonymy and graduonomy | 164 |
| Karshieva Sh.Sh. Criteria for formation of innovative speech units in english and uzbek languages | 167 |
| Kiryigitova N. Amir Temur obrazining badiiy ijoddha yoritilishi | 169 |
| Komilova G.T. Linguoculturological analysis of gender characteristics in uzbek artistic speech | 172 |
| Kurbanova I.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida morfologik usulda yasalgan temir yo'l terminlari | 175 |
| Kuryozova D., Yodgorova N. Shermuhammad Munis tarjimasidagi "Ravzatu-s-safo" asarida qo'llanilgan ayrim eroniylar leksik birliklar tahlili | 177 |
| Liu Likun Classification and characteristics of modern chinese color words | 181 |
| Madaminova D.B. Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida maqollardan foydalanish mahorati | 185 |
| Madieva M.Yu. Cultural features of brand names | 187 |
| Mamajonov M.Yu. Ishtirokchilar xususiyatlariga ko'ra muloqotning psixolingvistik o'rganish tarixi | 191 |
| Masharipov M.M. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida semantik okkazionalizmlarning nutqiy voqelanishi | 193 |
| Mavlonov A. L. Vilderning "Preriyadagi kichkina uy" asarida tarixiy janr xususiyatlarining davr va insonlar, ko'chmanchi oila munosabatlari tasviri orqali ifodasi | 197 |
| Maxamatova F. Abdulla Qahhor uslubidagi ayrim o'ziga xosliklar haqida mulohazalar | 199 |
| Maxmitova D.S. Alisher Navoiy asarlarida insoniy fazilatlar haqida | 202 |
| Maxmudov R., Matkarimova G. Ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim fitonimik frazeologizmlarning qiyosiy tahlili | 205 |
| Maxmudov R., Yusupova S. Dunyo xalqlaridagi allalarning lingvokulturologik xususiyatlari | 209 |
| Meylieva G.M. Teaching terminology in language for specific purposes | 212 |
| Muhammadiyeva N.X. O'zbek tilshunosligida terminologik tizim tahlilining asosiy tamoyil va yo'nalishlari | 214 |
| Muhammadiyeva Sh.A. Ayol va erkak obrazlarining shakllanishida ingliz va o'zbek til madaniyatidagi ekstralengvistik faktorlar | 217 |
| Murodova A.X. O'zbek va turk tillarida "boylik" konseptini ifodalagan frazeologik iboralar | 219 |
| Mustafayeva M.B. Ingliz tilidagi modal so'zlarning semantik xususiyatlari | 224 |
| Muxiddinova S.A. Til va madaniyatning hozirgi zamon tilshunosligidagi talqini | 226 |
| Naimjonova I.M. Tilshunoslarning "maydon" hamda "semantik maydon" tushunchasiga turlicha yondashuvlari | 230 |
| Najmiyeva P.T. Yapon tilidagi qo'shimchalar vazifalarining umumiy tasnifi va ularning o'zbek tilidagi qo'shimchalar vazifalari bilan qiyosiy tahlili | 232 |
| Nazarova D.B. O'zbek tili ish yuritish uslubining tasniflanishi | 235 |
| Nazarova Z.K. The study of english somatic phraseology with uzbek language | 238 |
| Niyazova D.F. Relationship between speech theory and speech acts | 240 |
| Nuraliyev G.Q. Taqlid so'zga yuklangan ma'no | 243 |
| Nuritdinova R. Sotsiolingvistika sohasi | 246 |
| Odinayeva N.L., Norqulova M. The depiction of female main characters in the novel "gone with the wind" by margaret mitchell | 248 |

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Otajonova D.B. Shaxs omiliga yo'naltirilgan antroposentrik tahlil | 251 |
| Qalandarov Sh. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi ertak namunalarining lingvopoetik tahlili | 254 |
| Qalandarov Sh. Ertak janr xususiyatlari | 256 |
| Qarshiyeva Sh.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida innovatsion iqtisodiy nutqiy birliklarning struktur tahlili | 259 |
| Qodirjonova I.B. O'zbek adabiyotida yetim obrazi va yetimlik motivining vujudga kelishi va ularning tadriji | 262 |
| Qodirova M.S. Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida qo'llangan parantez birliklar tahlili | 266 |
| Qosimova X.O. Turli tizimdagи tillarda kirish bo'laklar va ularni ifodalovchi sintaktik vositalar | 270 |
| Rabieva M.G. Speech norm and dysphemia | 272 |
| Radjabkulov O.R. Evfemizmlar va ularning shakllanish turlari | 275 |
| Ruzimatova G.Sh. O'zbek bolalar she'riyatida ruhiyat tasvirining badiiy talqini | 279 |
| Ruzmatova N.N., Jurayeva I.A. Adequacy and equivalency issues in translation | 282 |
| Safarova Sh.A. "Hayrat ul-abror" dostonida "me'roj" tasviri | 284 |
| Safarova Z.T., Narzulloyeva M.N. Charlz Dikkensning "Oliver Tvist" romanida bolalarga nisbatan adolatsizlikning tasviri | 287 |
| Saparova Sh.R. Bolalar adabiyotini o'qitishda Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga murojaat | 289 |
| Sapayeva V., Maximudov R. Qadimgi yunon-rim tillaridan o'zlashgan ayrim arxitektura-qurilish atamalarining etimologik tadqiqi | 291 |
| Saydalieva A.E. Irony and literary theory | 294 |
| Seytniyazova G.M. Shoир S.Ibragimov she'rlarida tasvir va ularning badiiy tarjimalarda takrorlanishi | 296 |
| Shaxobiddinova Sh.M. Asosiy tushunchalarning kontseptual maydonlarini modellashtirish | 302 |
| Sharipova D.R. "Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasiga oid sinonimlarning integral va differensial xususiyatlari | 304 |
| Sheraliyeva M.I., Maxmudjonova N. Cho'lpionning "Kecha va kunduz" romanida qo'llanilgan sinonimlar tasnifi | 307 |
| Shukurova S. Psychological and social aspects of the tragedy of suicide in english and uzbek literature | 309 |
| Sindorov L.K. Oybekning "Navoiy" rominidagi oshxonha buyum va jihozlariga oid leksemalar | 312 |
| Sobirova D.R. Tibbiy reklamatarda lokutiv nutqiy akt | 315 |
| Sotvoldiyeva I. Ingliz va o'zbek tillaridagi kollokvializmlarning qiyosiy tahlili | 317 |
| Suvanova M. Marosimlarga oid etnografik lakunalar lisoniy birlik sifatida | 320 |
| Tadjimatova G.Sh., Arslanbekova Sh.D. Language policy and the emergence of lingua franca among young language learners | 323 |
| Teshaboyev D.R. Ilmiy nutq uslubida qo'llanuvchi havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplar | 326 |
| Teshaboyev D.R. Navoiy asarlarida qo'llangan "shaxs" arxisemali leksemalar tadqiqiga doir | 329 |
| Toliyeva Sh.I. Lingvistik ekspertizaning tasnifi masalasi | 331 |
| Toshboyeva O.E. Tilshunoslikda terminologiya va nominatsiya: nazariy asoslar va farqli jihatlar | 334 |
| Turdimurodova U. Linguistic and cultural features of alternative phrases in english and uzbek languages | 337 |
| Tuxtanazarova S.U. Konsept - olamning konseptual manzarasining birligi sifatida | 340 |
| Tuxtanazarova S.U. Linguaculturology: bridging linguistics and culture | 343 |
| Tuxtasinova Z. M. Haqoratning konsept sifatida voqelanishi | 345 |
| Uluqov N., Jalilova M. "Boburnoma"da Namangan viloyati toponimiyasi talqini | 348 |
| Uluqov N., Xalilova N. Qo'qon xonligiga oid tarixiy ayollar ismlarining lisoniy xususiyatlari | 352 |
| Umarova I.A. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy haqiqat va badiiylik | 355 |
| Vaxobojonova R. Publisistik uslubning leksik-semantik xususiyatlari | 358 |
| Xakimov A.A. Matn ustida ishslash yo'sinlari | 361 |
| Xalilova D., Qurbonov J. Ertaklarning tarkibiy va semantik xususiyatlari | 363 |
| Xamidova N.I. Eksperimental fonetika: xususiyatlari va imkoniyatlari | 365 |
| Xamidova N.Yu. Fransuz va o'zbek tillaridagi antonim so'zlarning qiyosiy tahlili | 370 |
| Xamroyeva D.J. Sarguzasht adabiyotida anaxroniyaning ko'rinishlari | 373 |
| Xidirov O.J. O'zbek tili korpusida so'z birikmalarini sintaktik teglash | 375 |
| Xolmuradova J.I. Shevaga xos so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra farqlanishi | 378 |
| Xudoyerdiyeva G.Sh. Ingliz adabiyoti adiblarining fantastik janrdagi asarlarida psixologik mahorat | 382 |

| | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Yuldashev J.U. Said Ahmad romanlarida o’xshatishlar lingvopoetikasi | 385 |
| Yuldasheva M.A. Badiiy adabiyotda pretsedent nomlar va ularning matn talqinidagi o’tni | 388 |
| Yuldasheva M.A. Exploring the role and impact of intertextual devices in literary texts | 390 |
| Yuldasheva M.A. Implicit meanings in english proverbs | 393 |
| Yusupova H.U. Specific features of bildungsroman in “The kiterunner” by Khaled Hosseini | 397 |
| Zarpillayeva Sh.Z. “Sabo va Samandar” romanida mumtoz adabiyot an’analari | 400 |
| Ziyadullayeva M.T. Lexical-semantic features of addressing women in english and uzbek languages | 402 |
| Абдувахобова Д.Э. Лексическая многогранность и богатство русского языка | 405 |
| Абдуллаева Б.К. Образы влюбленных и соперника | 407 |
| Абдуллаев Х. Раскрытие экологических метафор: исследование синергии языка и экологии посредством эколингвистики | 411 |
| Агзамходжаева Ш.С. Образ влюбленного в суфийском учении Алишера Навои | 413 |
| Акбарходжаева Ф.А. Тиббиёт терминларининг белгили критериялари: шаклланиши ва ривожланиши | 417 |
| Алиева З.Р. Идеографический словарь как коммуникативная система и справочник для билингвов | 421 |
| Аскарова Ш. Семантическая интерференция как источник ошибок при изучении третичного языка | 423 |
| Велишаева Э.С. Лингвостатистические характеристики общеязыкового и индивидуально-авторского употребления фразеологизмов в художественной прозе В.В. Набокова | 426 |
| Джафарова Д.И. “Хотира” тушунчасининг тилшуносликдаги ўрни ҳамда фанлар билан боғлиқлиги | 428 |
| Зохидова Д. Навоий лирикасида ҳижроннинг поэтик талқини | 432 |
| Исмоилова М.И. Рус тилида посессивликнинг ифодаланиши | 435 |
| Ишанқулова Г.Р. “Бобурнома” асаридаги жой номларининг лексикографик талқини | 438 |
| Камалходжаева С.С. Анализ речевого поведения следователя на допросе: судебная лингвистика раскрывает тонкости коммуникации | 441 |
| Каримова З.Ф. Ундов сўз-гапларнинг лингвопоэтик хусусиятлари | 443 |
| Каюмова Н.К. Фразеологизм как составная целостная единица языка лексические особенности фразеологизмов | 446 |
| Кушматова М.С. Структурно-грамматические особенности фразеологических единиц в русском, английском и узбекском языках | 449 |
| Мавланова Д.С. Лингвокультурные особенности пословиц в русском и английском языках | 452 |
| Мавланова Д.С. Роль и место пословиц и поговорок в системе языка и их лингвистические особенности | 454 |
| Махсудова Н. Халқ мақолларида ўзбек миллий қиёфаси | 457 |
| Мусаев А.С. Современная лингвистическая научная парадигма и структурализм | 462 |
| Мухторова М.М. Прагмалингвистическое исследование акта упрека в современном английском языке | 465 |
| Мўминова Г. Шавкат Раҳмон шеъриятида эстетик идеалнинг ифодаланиши | 468 |
| Пўлатова Ў.С. Инглиз юридик терминларининг лексик – семантик ифодаланиши | 472 |
| Рахманов Г.Н. О структурно-семантической классификации общественно-политической лексики | 475 |
| Умарова М.С. Применение корпусной лингвистики в компьютеризированном обучении иностранным языкам | 478 |
| Усманова Ш. Қўқон хонлиги давридаги ўзбек шоирлари ижодининг лингвомаданий хусусиятлари | 480 |
| Файзиева С.А. Совместимые лексические единицы входного и выходного языков: ядро параллельных текстов | 484 |
| Ходжаева Г.Б., Салаева Г.Ғ. Ўзбек тилига сўз ўзлашиш жараёни | 486 |
| Худойбергенова Н.М., Жуманиязова Д.К. Лексический аппарат языка как динамическая система | 489 |
| Курбонов А.Ш. Мавжуда Хамирова тавсифлаган ва илмий муомалага киритган асарлар | 492 |

...Nomerga qaytib borarkan, hamon boshini chayqab o'z-o'ziga so'zlanardi:

"Imperiyasi chiribdi... Yiqilsa ham hech kim tankir qolmaydi. Mening miyamda shu bugun g'alati fikrlar qo'zg'aldi. Nimaligini o'zim ham bilmayman... Ilgari hech bunaqa gaplar yo'q edi. Allakimdan allanimalarni so'ragim, bilgim, o'rgangim keladi. Bir pirni topib — tariqat so'rasammi? Bir zakonchini topib — zakon so'rasammi? Yo bir muallimni topib — masala so'rasammi? Hayronman..." "Imperiyani kemaga o'xshaydi, deydi... Yo'q, kema, deydi, kema... Nimaligini bilsam edi! Imperiya, nima desam, oq podshoni, o'zini, pogonini ko'rsatdi. Oq podshoning nimaligini o'zi aytib berdi, o'zining kimligini o'zim bilaman, bugun yana ham ochiqroq bildim, ertaga juda ravshan bilsam kerak... Endi, yelkasidagi pogoni qoldi. Nima, azbaroyi xudo, bu imperiya? Kimdan so'rayman endi? Kimdan?!"

Miryoqubning bo'layotgan siyosiy voqealarga, atrofdagi insonlarga, o'ziga munosabati, keljakdan xavotiri, ikkilanishlari — barchasi uning o'z-o'zi bilan muloqotida namoyon bo'ladi. Odatda, shaxs tashqariga chiqara olmaydigan fikrlarini, boshqa suhbatdoshlar bilan muhokama qila olmaydigan masalalarini ham ichida o'zi bilan muhokama qiladi. Bu esa intrapersonal muloqotning psixologik asoslardan biri — fikr bildirishdan qo'rqliq holatining namoyon bo'lishidir.

Shunday qilib, intrapersonal muloqot doim ham patologik jarayon sanalmay, sog'lom insonlarning ruhiy-hissiy holati bilan hamohang tarzda yaratilishi mumkin bo'lgan muloqot turidir. Intrapersonal muloqotda shaxs o'z "men"i bilan muloqot qilgani sababli adresat ham, adresant ham bir shaxsning o'zi sanaladi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan intrapersonal nutq shaxsning o'z-o'zini baholashi, o'ziga munosabati, fikrlarini tashqi ovoz bilan bildirishdan qo'rqliq natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Interpersonal muloqot esa boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishni anglatadi. Biz uchun ma'lum bo'lgan monolog, dialog, polilog kabi muloqot shakllarining barchasi interpersonal muloqotning turlari sanaladi.

Shunday qilib, muloqot ishtirok etuvchilarining xususiyatlariga ko'ra psixolingvistik nuqtayi nazardan intrapersonal muloqot (shaxsning o'zi bilan ichki muloqoti), interpersonal muloqot (shaxsning boshqalar bilan muloqoti: monolog, dialog, polilog) va kvazimuloqot (real suhbatdosh bilan xayoliy muloqot, xayoliy suhbatdosh bilan tasavvuriy muloqot, Yaratgan bilan muloqot) kabi turlarga bo'linadi. Bu muloqot turlarining barchasi insonning ongi, ruhiy holati bilan chambarchas bog'liqligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ehondor, Beryl. Intrapersonal Communication as a Foundation for Personal Branding//https://www.researchgate.net/publication/313529725_Intrapersonal_Communication_as_a_Foundation_for_Personal_Branding_-_Beryl_Ehondor
2. Каган М.С. Мир общения. Электронный ресурс. https://www.studmed.ru/view/kagan-ms-mir-obscheniya-problema-mezhsubektnyh-otnosheniy_6bd5bde497e.html?page=8
3. Солижонов Й. Бадий нутқ поэтикаси. Монография. Фаргона, 2023. Б.4.

УО'К 81

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA SEMANTIK

OKKAZIONALIZMLARNING NUTQIY VOQELANISHI

M.M.Masharipov, PhD, mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada ma'rifatparvar jadid adibi Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik asarlari matnidagi semantik okkazional yasalmalarning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, uslubiy qo'llanishi hamda vazifalari haqida nazariy fikrlar bildirilgan. Bunday leksik birliklarning aniq misollar asosidagi lingvistik tahlili amalgalashirilgan.

Kalit so'zlar: leksik-semantik voqelanish, uzual ma'no, okkazional ma'no, kontekstual ma'no, individual ma'no, leksik qo'llash, barqarorlashganlik, ijtimoiy shartlanganlik, semantik tarkib, semantik qurshov.

Аннотация. В статье высказаны теоретические мысли о сущности, причинах создания, типах, стилистическом использовании и функциях семантических окказиональных созданий в тексте публицистических работ просветительского деятеля-джадида

Махмудхожи Бехбуди. Проведен лингвистический анализ на основе конкретных примеров таких лексических единиц.

Ключевые слова: Лексико-семантическое изменение, обычное значение, окказиональное значение, контекстуальное значение, индивидуальное значение, лексическое использование, устойчивость, социально обусловленность, семантический состав, семантическая оболочка.

Abstract. The article enlightens theoretical ideas about the essence of semantic occasional constructions, the reasons for creation, types and methodological application and functions in the journalistic works of the enlightened jadid Mahmudhoja Behbudi. Linguistic analysis of such lexical units based on concrete examples is analyzed.

Key words: Lexical- semantic realization, common meaning, occasional meaning, contextual meaning, individual meaning, lexical application, stabilization, social conditioning, semantic content, semantic environment

Lisoniy sathda til birliklarining nutqiy qo'llanish tizimi ularning umumiy, barqaror tizimiga aynan mos kelmasligi ham mumkin. Bu, o'z-o'zidan, til birliklarining leksik-semantik voqelanishi, morfologik tuzilishining nutqda qo'llanishidagi o'zgachalikni keltirib chiqaradi. Nutqiy so'z yasalishida umumiy qoida va andozalardan chekinish holatlari ham kuzatiladi va buning natijasida g'ayriodatiy yasalmalar yuzaga keladi.

Ma'lumki, uzial va okkazional ma'nolar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uzial ma'no nutqdan tashqarida ifodalanishi bilan bog'liq [1;41]. Shu o'rinda ushbu ma'nolarning tavsifiga to'xtalib o'tish joiz:

Uzial ma'no (lot. usus – odat, qoida). So'zning lug'aviy sifatida bor, umum tomonidan qabul qilingan, umum qo'llanishdagi ma'no. Mas., *bosh* so'zining "tananing bo'yindan yuqori qismi", "boshliq", "rahbar" ma'nolari; *katta* so'zining "hajm, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan", "yosh jihatdan ortiq" ma'nolari uzial ma'nolardir. Qiyoq. Okkazional ma'no [2;113].

Uzial ma'no so'zning semantik tarkibida mavjud bo'lgan ma'nosidir. U har gal nutqda yaratilmaydi. Til birligi sifatida, ma'lum kontekstda, boshqa leksik birliklar qurshovida o'z lug'aviy-grammatik (turkumiyl) ma'nosini va shu turkumga xos grammatik shakl tashishi bilan namoyon bo'ladi. Buni *chiqmoq fe'li* misolida ko'rishimiz mumkin: 1. *So'fi mezonaga chiqib azon aytdi* (A.Qodiriy) 2. *Uning bosimi ikki yuzga chiqdi*. 3. *Shu vaqtida ichkaridan Oybodoq chiqib, Otabek yoniga keldi* (A.Qodiriy). 4. *Chigit unib chiqdi*. 5. *Quyosh chiqdi*. 6. *Uzumning suvi chiqdi*. 7. *Yiqilib qo'li chiqdi*. 8. *Kitob nashrdan chiqdi* [3;46].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *okkazionalizm* termini "umumiste'molga muvofiq kelmaydigan, individual tarzdagi ma'noga ega bo'lgan til birligi" deb izohlangan (O'TIL, III, 103-bet). Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ladi, so'zning uzial ma'nosini tilda barqarorlashgan, ijtimoiy shartlanganlik xususiyatlariga ega bo'ladi va shu asosda lisoniy ma'no sifatida qaralishi lozim. Shu o'rinda har qanday badiiy asar mazmuniy maydonini shakllantirishda ishtirok etishi, biroq uzial ma'nodan alohida tarzda mavjudlik kasb etuvchi okkazional ma'no tushunchasi bilan bog'liq atamalar semantik tabiatini va tarkibini yoritish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular ham publisistik asarlar tilining lug'aviy xususiyatini hosil qiluvchi muhim nutqiy unsurlar hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar va lug'atlarda bu haqda quyidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan: **Okkazionalizm**. Mahsuldor bo'limgan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm [2;74].

Okkazional ma'no (lotincha tasodifiy) – Q. Muvaqqat ma'no [2;74].

Muvaqqat ma'no. So'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan ma'no: *Fan, san'atning gullari butun, to'plangandi suhbati uchun* (Oybek). *Kun haliyam issiq bo'lsa-da, har holda shabada yo'rg'alardi* (M.Musayev) [2;67].

M.Mirtojiyev ushbu tushunchani shunday ta'riflaydi: "Okkazional ma'noli so'z doimo nutq tarkibida namoyon etuvchi so'z yoki so'zlar qurshovida bo'ladi. Chunki busiz okkazional ma'no hayot emas" [1;42]. Olim okkazional va uzial ma'no deb atalgan ushbu ikki tushunchaning farqini aniq ko'rsatadi: "Uzial ma'no okkazional ma'nodan farqli holda, faqat bir so'zning semantik tarkibiga kiradi. Masalan, "suyukli bola" okkazional ma'nosining ijobiy emotsiyal komponenti bilan

qo'zichoq, bo'taloq, toychoq, shunqor, do'mboq kabi so'zlarda ifodalash mumkin. Ruslarda *parasenok* so'zida ham ifodalanadi. Uzual ma'noni bir so'z ifodalaydi, ya'ni uni yana ikkinchi bir so'zda ifodalab bo'lmaydi. Okkazional ma'no mohiyati bilan nutq hodisasi bo'lib, o'ziga xos lug'aviy grammatik qurshovda namoyon bo'ladi, umumlisoniy mohiyat kasb etmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda bunday ma'no "okkazional ma'no", "nutqiy ma'no", "kontekstual ma'no", "individual ma'no" kabi atamalar bilan nomlanib kelinadi. So'zning bunday ma'no bilan qo'llanishi esa "leksik qo'llash" deb yuritiladi [3;46].

So'zning semantik tabiatidagi leksik ma'no uzual va okkazional semasi bilan o'zaro farqlanadi. Uzual ma'no so'zning tarkibiga kirib, nutqdan tashqarida ham tushuncha ifodalaydi, lekin uni ifodalagan so'z boshqa so'z bilan munosabatga kirishganda voqelanishi, turli nutq talabiga ko'ra tanlanish imkoniyatiga ega bo'lishi, faqat bir so'zning semantik tarkibiga oidligi bilan xarakterlanadi. Okkazional ma'no esa nutq sharoitida ma'lum leksemalar qurshovidagi so'zda voqelanib, kontekstdan tashqarida ifoda bermaydi. O'zbek tilshunosligida okkazional leksikaning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, lug'aviy va morfologik okkazional so'zlar, ularning uslubiy vazifalari qoniqarli yoritilgan [4].

Biroq badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar matnidagi okkazional yasalishlarni o'rganish, til va nutq hodisalarini farqlash asosida ularning badiiy-estetik vazifalarini ko'rsatish hamda muallifning so'z yasalishidagi shaxsiy ijodiy yondashuvlarini tekshirish doimo ahamiyatli sanaladi. O'zbek tilida mavjud bo'lgan okkazional so'zlarning xarakterli materiallari hali yetarli darajada to'plangan va tadqiq qilingan deb bo'lmaydi. Bunday material turli adiblarning badiiy asarları, publitsistik, satirk-yumoristik asarları matnida mavjud. Mana shunday manbalar qatoriga Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik asarlarini ham qo'shish mumkin. Adibning publitsistik asarları matni yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz ularda bir qator xarakterli okkazional yasalmalar mavjudligini ko'rsatdi. Bularidan biri – **semantik okkazionalizmlar**. Bunday okkazional qo'llanish bir so'zning ma'no o'zgarishi sifatida yuzaga keladi. Bunda nutq jarayonida okkazional ma'no biror so'zga yuklanadi va shu so'z okkazional ma'noni namoyon etuvchi so'zlar qurshovida beriladi. U ifodalagan okkazional ma'no yuzaga kelgan matndagina voqe bo'ladi. Uni qurshab turgan, ya'ni u bilan birikma tarkibida joylashgan so'zlar shu okkazional ma'noga asoslangan so'zning namoyon etuvchilari hisoblanadi. Okkazional ma'no bilan voqelangan so'z boshqa so'z bilan birikmaga kirishmaydi, faqat o'z o'rniда va o'z nutqiy mavqeyidagina okkazional sifatida voqelanadi.

Adib o'zbek tilida avvaldan mavjud ba'zi so'zlarni favqulodda, yangi ma'nolarda qo'llaydi va natijada, ma'noviy okkazional qo'llash yuzaga keladi:

Xafaqon. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da XAFAQON BO'LMOQ fe'li "1) diqqat bo'lmoq, siqilmoq, xunob bo'lmoq; 2) qon bosimi ortish kasaliga yo'liqmoq" tarzida izohlangan (O'TIL, IV, 392-bet). Mahmudxo'ja Behbudiy "Farg'ona xotiralari" nomli maqolasida bu so'zni maorif sohasiga ko'chiradi va unga favqulodda yangi ma'no yuklaydi: "*Buxoro va Samarqand darsxonalarini tartibi hamon mantiq, hamon chirib mansux bo'lganki, nahv va fiqh darslarini eshitsak, anqorib xafaqonmiz*" [5;298]

Tesha. Ma'lumki, "tesha" so'zi oddiy uy-ro'zg'or buyumi, mehnat qurolini anglatadi. Bu so'zni Mahmudxo'ja Behbudiy maktab, maorif sohasida yozilgan "Ilmning foydasi" nomli maqolasida ilmning, ilm egallash quroli sifatida so'zning semantikasiga qo'shimcha ma'no yuklaydi: "*Har bir birodarimiz ilm taomul etsun, ilm har bir zamon kasbu maishat teshasidur*" [5;190]. Demak, bu o'rinda "ilm" "teshaga" qiyos qilinmoqda va "ilm ma'rifatning qurolidir (teshasi)" degan fikr yuzaga kelmoqda.

Unvon. Odatda "biror ish faoliyat sohasida vazifa darajasini ko'rsatuvchi faxriy nom" ma'nosida ishlatiluvchi bu so'zni Mahmudxo'ja Behbudiy "noyob asar" ma'nosida qo'llaydi: "*Qo'lumni tokchaya uzottim, tizilmish kitoblardan biri keldi. Ko'rdimki, "Tuhfat ul-ahror"dir. Ochdim. Surxi (qizil siyohi) ila forscha shu mazmunli bir unvon yozilubdur*" [6;3].

Saqlamoq. Adabiy tilda "ehtiyyot qilmoq, asramoq, muhofaza qilmoq, omon qoldirmoq" ma'nolarida qo'llanuvchi mazkur fe'lning "tiyilmoq" semasi adib maqolalari matnida ifodalagan. Bu sema so'z uchun favqulodda ma'nodir: "*Vasliy janoblari bilmayin na fikr ila tanazzul etibdurlarki, unday nimarsag'a javob yozmoq balosig'a giriftor o'lmoqdan qalamni saqlaymiz*" [6;23].

Ishlamoq. Ushbu fe'lning ma'nolaridan biri "harakatda bo'lmoq", "Yurmoq, Yurib turmoq"; "amal qilmoq" dir (O'TIL, II, 256-bet). Hozirda tilimizda "qonun ishlamayapti" degan ibora ham bor.

M.Bebudiy ushbu ma'noni "Bizga isloh kerak" nomli maqolasida "haqiqat ishlamayapti", "aksincha bid'at ishlayapti" iboralariga singdirgan va so'zning favqulodda ma'nosi, ya'ni "adolat yuzaga chiqmayapti" ma'nosi vujidga kelgan. Aksincha, bid'atning avj olayotgani qarama-qarshi qo'yish usuli orqali ko'zda tutilayotgan holatning ochilishiga xizmat qilgan: "Ulamo ozaydi. Axloq buzildi, ulamoi musulmoniyag'a johil va xoin, sarf-savodsiz kishilar qozi bo'ldi. **Haqiqat ishlamadi, bid'at ishladi...** Oh, zolim hukumat va missionerlar bizga nalar qildilar!" [5;492].

Hosil. Bu ot leksema o'z ma'nosida "natija, oqibat; yakun, samara; mazmun, mohiyat" (O'TIL, V, 552-bet.) ma'nosida qo'llanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy bir o'rinda bu so'zni "pul", "mablag'" ma'nosida qo'llagan va unga favqulodda ma'no yuklagan: "Muhtaram samarqandiy ko'ngulli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana "Padarkush"ni Samarqandda yetiinch mayda sahnag'a qo'yub, **hosilini** maktablarg'a sarf uchun berdilar" [6;16].

Maosh. Ushbu so'z "turmush, tirikchilik uchun zarur narsalar va ish haqi" ma'nosini anglatadi. (O'TIL, II, 541-bet). Mahmudxo'ja Behbudiy "Ochlik balosi" nomli maqolasida *maosh* so'zini "ne'mat", "nasiba" ma'nosida qo'llagan hamda "maosh oshasun" birikmasida u favqulodda ishlatish holatini yuzaga keltirgan: "Ey musulmon birodarlar, lozimki, har kim o'z kasbidan **maosh oshasun**, o'zgadin foydalanmog'ni tashasun" [5;490].

Yuqoridagi misollarda semantik okkazionalizmlar u yoki bu nutq vaziyatining asosini ifodalamoqda va matnda shu asosga urg'u berilmoqda. Matn tarkibidagi okkazional ma'no lug'atdagi mavjud so'zlar orqali ifodalansa, publitsistning ko'zda tutgan maqsadi aniq ifodalanmay qolishi ham mumkin. Shuning uchun tasvir obyekti asosini aniq ko'rsatish uchun muallif favqulodda boshqa so'z tanlash yo'lidan borgan va qo'llangan so'zlarning denotativ ma'nosiga muallif fikrini ifodalashga xizmat qiladigan yangi ma'no yuklangan. Bu leksemalarning okkazional ma'noda qo'llanishining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning muayyan matn bilan mustahkam bog'liqligi hisoblanadi.

Publitsistning mahorati til imkoniyatlardan shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlagan holda o'z lisoniy intensiyalarini matnda namoyon qilishda foydalanishi bilan belgilanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsist sifatida so'zlarning bu kabi leksik-semantik voqelanishidan ustalik bilan foydalana olgan adib sanaladi. U maqolalari matnida XX asr boshlari davr adabiy tili so'z boyligidagi rang-barang shakl va ma'no munosabatdagi leksemalarni o'z o'rnida qo'llab, publitsistik uslubda ularni yangi estetik tushunchalarni ochishga xizmat qildirgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining asosiy mavzu va motivini yurtni mustamlakachilardan ozod ko'rish, ilm va ma'rifat orqali jamiyatni tanazzuldan olib chiqish, ozod yurtda fozil fuqaroni kamol toptirishga da'vat etish g'oyalari tashkil etar ekan, publitsistik asarlarining lug'aviy tarkibi, badiiy-funksional xususiyatlari ham mana shu maqsad sari yo'naltirilganligi ko'zga tashlanadi. Muallif omma bilan muloqotda publitsistik uslubga xos bo'lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o'quvchini bunga ishontirish, his-tuyg'ulariga ta'sir etish, tashviqot-targ'ibot usullaridan hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning hissiy-ta'siri vositalaridan o'rinli foydalangan. Publitsistika adibning maqsad va intilishlarini amalga oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek publitsistik uslubiga xos lisoniy me'yorlarning qaror topishida Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining o'z o'rnini bor. Okkazionalizmlar so'z yasalishi qonuniyatiga asoslanmagan, uzual qonun-qoidalarga nomuvofiq g'ayriodatiy yasalmalardir. Behbudiy publitsistikasida qo'llangan okkazional yasalmalar shunday nomuvofiqlik zamirida yuzaga kelgan. Ularni muallifning so'z ijodkorligi, publitsistik matnda funksional-stilistik vositalar sifatida qo'llanishidagi o'ziga xoslik tamoyili nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 269 б.
2. А. Ҳожиев. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – 164 б.
3. Ўзбек тили практикуми. 1-кисм. // Маъсул мухаррир: Сапаев К. – Тошкент, 2005. – 96 б.

4. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б; Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадийй-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.
5. Махмудхўжа Бехбудий. Таъланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 512 б.
6. Махмудхўжа Бехбудий. Таъланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 312 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. I-V жилдлар. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Давлат илмий нашриёти, 2020.

UO'K 808.5

L. VILDERNING “PRERIYADAGI KICHKINA UY” ASARIDA TARIXIY JANR XUSUSIYATLARINING DAVR VA INSONLAR, KO’CHMANCHI OILA MUNOSABATLARI TASVIRI ORQALI IFODASI

A.Mavlonov, magistrant, Turkiston Innovatsiyalar Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola Laura Ingalls Uaylderning “Preriyadagi kichkina uy” asari, uning janr xususiyatlari, asarning tarixiy konteksti va hikoyalar bayonini tahlil qiladi. Maqolada Uaylderning chegara hayoti qiyinchiliklari va g'alabalarini, ko'chmanchilar va tubjoy amerikalik qabilalar o'rtaisdagi murakkab munosabatlarni, shuningdek, chidamlilik, oila va ko'chmanchilik ruhining abadiy mavzularini o'rganadi. Yorqin bo'yoqlar va boy tasvirlar orqali muallif ushbu sevimli klassik asarning jozibasini yanada oshiradi.

Kalit so'zlar: “Preriyadagi kichkina uy”, Laura Ingalls Uaylder, tarixiy fantastika, chegara hayoti, Amerikaning O'rta G'arbiy qismi, chidamlilik, oilaviy rishtalar, ko'chmanchilar, tubjoy amerikalik qabilalar, madaniy tafovut, adabiy tahlil.

Аннотация. В этой статье представлен глубокий анализ «Маленьского домика в прерии» Лоры Ингальс Уайлдер, подчеркивающий его богатое повествование, тематическую глубину и исторический контекст. В нем исследуется, как Уайлдер отражает проблемы и триумфы приграничной жизни, сложные взаимоотношения между поселенцами и индейскими племенами, а также вечные темы устойчивости, семьи и духа первопроходца. Через яркие описания и острые моменты автор углубляется в непреходящую привлекательность и значение этой любимой классики.

Ключевые слова: «Маленький домик в прерии», Лора Ингальс Уайлдер, историческая фантастика, пограничная жизнь, Средний Запад Америки, устойчивость, семейные узы, поселенцы, индейские племена, культурный разрыв, ностальгия, тематическая глубина, литературный анализ.

Abstract. This article provides an insightful analysis of "Little House on the Prairie" by Laura Ingalls Wilder, highlighting its rich narrative, thematic depth, and historical context. It explores how Wilder captures the challenges and triumphs of frontier life, the complex interactions between settlers and Native American tribes, and the timeless themes of resilience, family, and the pioneer spirit. Through vivid descriptions and poignant moments, the author delves into the enduring appeal and significance of this beloved classic.

Key words: "Little House on the Prairie", Laura Ingalls Wilder, historical fiction, frontier life, American Midwest, resilience, family bonds, settlers, Native American tribes, cultural divide, nostalgia, thematic depth, literary analysis.

Laura Ingalls Uaylderning “Preriyadagi kichkina uy” asari tarixiy fantastika janriga kiruvchi asar bo'lib, 19-asrning oxirlarida Amerikaning O'rta G'arbiy qismidagi ko'chib yuruvchilar oilasining hayotini aks ettiriladi. Kitob Ingalls oilasining Viskonsin shtatidagi uyini tark etib, Kanzasning keng dashtlariga joylashish yo'lidagi sayohatini bayon qiladi. Ushbu janrning asosiy xususiyatlaridan biri tarixiy tafsilotlarga e'tibor berilishidir. Uaylder o'sha davrning landshaftini, kundalik tartiblarini va madaniy me'yorlarini sinchkovlik bilan tasvirlab beradi, bu esa o'quvchilarga Ingalls oilasi dunyosiga sho'ng'ish imkonini beradi. Jumladan, kitob sabr-toqat, oilaviy rishtalar va ko'chmanchilik ruhi mavzularini o'rganadi. Og'ir ob-havo sharoiti, tubjoy amerikalik qabilalar bilan uchrashish va